

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**ZAMONAVIY O'ZBEK VA ARAB HIKOYALARIDA AN'ANA VA
NOVATORLIK
(ISAJON SULTON VA JO'RJ SALIM IJODI MISOLIDA)***Dilafuz Muxiddinova**O'qituvchi, Filologiya fanlari doktori,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: ana'ana va novatorlik, realizm, modernizm, ekzistensializm, xalq og'zaki ijodi, talmeh, ramz.

Annotatsiya: Adabiyotda ana'ana va novatorlik masalalari doimiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir ijodkor bir vaqtning o'zida o'zidan oldingi an'analarning davom ettiruvchisi va ayni paytda yangiliklarning targ'ibotchisi ham hisoblanadi. Bu borada mazkur maqolada tahlilga tortilgan ikki ijodkorning ijodida aynan mana shu xususiyatlarni ko'rish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan arab yozuvchisi Jo'rj Salim ijodini realizm an'alarini davom ettirishdan boshlab, ijodining ikkinchi bosqichida modernizm kabi zamonaviy yo'nalishlarni o'zlashtirgan holda davom ettirgan. Bugungi kun zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan yozuvchilardan Isojon Sulton ham o'zidan oldingi ana'analarni davom ettirgan holda zamonaviy hikoyalar yaratmoqda. Mazkur maqolada ikki adib, ya'ni arab va o'zbek yozuvchilarining hikoyalari orqali ana'ana va novatorlik xususiyatlari tahlil qilingan.

**TRADITION AND INNOVATION IN MODERN UZBEK AND ARABIC
SHORT STORIES (BASED ON THE WORKS OF ISAJON SULTAN AND
JURJ SALIM)***Dilafuz Mukhiddinova**Lecturer, Doctor of Philological Sciences,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: tradition and innovation, realism, modernism, existentialism, folklore, talmech, symbol.

Abstract: In literature, the issues of tradition and innovation are among the most relevant. Each writer is both a successor to the traditions of his predecessors and at the same time a promoter of innovation. In this regard, these features can be seen in the work of the two writers analyzed in this article. George Salim, an Arab writer who worked in the second half of the 20th century, began his work continuing the traditions of realism, and continuing his work in the second stage, he adopted modern trends such as modernism. To date, Isajan Sultan is one of the writers who occupy a special place in modern Uzbek literature, continuing the traditions of his predecessors and creating modern stories. This article analyzes the features of tradition and innovation, that is, through the stories of Arabic and Uzbek writers.

ТРАДИЦИЯ И НОВАТОРСТВО В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ И АРАБСКИХ РАССКАЗАХ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ИСАДЖОНА СУЛТАНА И ДЖОРДЖА САЛИМА)

Дилафруз Мухиддинова

Преподаватель, доктор филологических наук,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: традиция и новаторство, реализм, модернизм, экзистенциализм, фольклор, талмех, символ.

Аннотация: В литературе вопросы традиции и новаторства являются одними из самых актуальных. Каждый писатель является одновременно продолжателем традиций своих предшественников и в то же время пропагандистом инноваций. В связи с этим эти черты можно увидеть в творчестве двух анализируемых в данной статье писателей. Джордж Салим, арабский писатель, творивший во второй половине XX века, начал своё творчество, продолжая традиции реализма, и продолжая своё творчество на втором этапе перенял современные течения, такие как модернизм. На сегодняшний день Исаджан Султан один из писателей, занимающих особое место в современной узбекской литературе, продолжая традиции своих предшественников создает современные рассказы. В данной статье анализируются особенности традиции и новаторства, то есть посредством рассказов арабского и узбекского писателей.

KIRISH

XX asr jahon adabiy jarayonida insoniyat badiiy tafakkurining takomili sifatida realistik tasvirlash jarayonining tabiiy rivojlanishida magik, psixologik, intellektual realizm kabi oqimlari vujudga kelib uni neorealizm deb atalishga sabab bo'ldi. Realizm bilan bir qatorda adabiyotda futurizm, ekspressionizm, abstraksionizm, syurrealizm, ekzistensializm kabi insonning ichki his-tuyg'ulariga asoslanib, inson borlig'ini anglangan va anglanmagan qirralarini ochishni, bu hayotdagi, olamdagi o'rini aniqlashni, hayotning mazmun-mohiyatini tushunishni obyektiv borliqni rad etgan holda yangicha ifodalashga harakat qiluvchi, ko'plab yangi oqimlarni o'zida mujassam etgan modernizm magistral yo'nalishga aylandi. So'ng modernizmdan farqli o'laroq, an'analarni qisman o'zida tiklagan, modernistik yozish san'atlarini o'zida mujassam etgan postmodernizm yo'nalishi rivojlana boshladi. Mana shu yo'nalish va oqimlar ta'siri XX asrda barcha Sharq adabiyotlarida kuzatildi. Buning sababi, Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiy jarayoniga integratsiyasi, globallashuv davrida o'zaro ta'sir va tajriba almashish tamoyillarining jadallashishi, shu bilan birga ijodkorlar badiiy tafakkurining yangilik sari bo'lgan tinimsiz harakatidir. Sharq xalqlari adabiyotida yangilanish tamoyillarining u yoki bu milliy adabiyotda namoyon bo'lishi turlicha va o'ziga xos tus oldi, butunlay uzoq va yaqin o'tmish meros bilan aloqani uzmasdan, boy milliy adabiy meros an'analarini bilan uyg'unlashib, milliy mentalitet va didlariga moslashdi, shu jumladan, arab adabiyoti ham. Zamonaviy arab hikoyanavisligi jahon adabiy jaryonidagi turli zamonaviy yo'nalish va oqimlarning mazmun-mohiyati va badiiy tasvir va ifoda vositalarini o'zlashtirish jarayonida bir vaqtning o'zida milliylikni, milliy koloritni, sharqona qadriyat va boy adabiy merosining an'analarini saqlab qolishga intilish kuchaydi. Zamonaviy arab hikoyanavisligida mazmunan yangilanish tamoyillari yozuvchilarning zamonaviy mavzularni yoritib berishda muqaddas diniy kitoblarda, rivoyatlarda keltirilgan payg'ambarlar haqidagi qissalar, jahon adabiyotidagi yoki milliy adabiyotdagi mifologik va asotiriy obrazlarga bilvosita yoki bevosita murojaat etishlarida kuzatilmoqda. Shaklan yangilanish tamoyillari esa zamonaviy hayotiy muammolarni tasvirlash jarayonida asar kompozitsiyasida maqoma janri xususiyatlari, tarixiy xronika, sayohatnoma, qissa, masal-hikoya kabi o'rta asr adabiyoti an'analarini iste'foda etilishda namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOTNING USULLARI

Zamonaviy arab va o'zbek hikoyalarida an'ana va novatorlik masalalari arab yozuvchisi Jo'rij Salim va o'zbek yozuvchisi Isajon Sulton ijodi misolida tahlil qilinadi.

Usullar: qiyosiy tarixiy, qiyosiy tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Shuni ta'kidlash joizki, jahon adabiyotidagi adabiy jarayonlar almashinuvi, badiiy uslub va usuldagi yangilanish tamoyillari barcha milliy adabiyotlarga kirib bordi, shu jumladan, o'zbek adabiyotida, XX asrning 80-90 yillaridan boshlab ko'zga tashlana boshladi. Zamonaviy o'zbek ijodkorlarning badiiy tafakkuri bevosita va bilvosita omillar tufayli kengayib borishi, insonning shaxsiyati, uning ichki "meni"ni tasvirlash, insonning borlig'ini, uning subyektiv olamini har tomonlama ochib berishga harakat kuchaydi. Zamonaviy o'zbek yozuvchisi, adabiyotshunos Xurshid Do'stmuhammad ta'kidlashicha, "Yangi o'zbek hikoyachiligida ham yillar mobaynida yangicha tasvir vositalarini kashf etish jarayoni kechdi. Ramz, timsol, majoz so'nggi yillar hikoyachiligimizning ko'rki, bezagi, jilosiga aylandi." [1,234] Zamonaviy o'zbek hikoyanavisligida ham arab adabiyotidagi singari yangilanish tamoyillari, tasvirda turli poetik izlanishlar olib borilayotgani ko'zga tashlanadi. Bu davrda yaratilgan o'zbek hikoyanavisligiga "mulohaza-hikoya", "o'ychan proza", "intellektual nasr" [1,230] kabi nomlar berilmoqdaki,

lekin hali tugal nomlanish berilgani yo'q. Zamonaviy o'zbek hikoyanavislari ham arab yozuvchilari kabi yangilanishlar jarayonida o'zbek xalqining mintalitetiga, milliy qadriyatlariga moslagan holda yondoshishga harakat qilmoqdalar. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy kabi bir qator hikoyanavislar ijod qilmoqdaki, ularning ijodida betakror uslubiy jilolarni ko'rish mumkin. XX asrning oxiri XXI asr boshlari zamonaviy o'zbek hikoyanavisligida ham arab hikoyanavisligidagi kabi shakliy va mazmuniy o'zgarishlar, yangilanishlar kuzatilmoqdaki, o'xshash tomonlari talaygina. Xususan, syujet tizimida g'ayritabiiy, sirli voqelik, psixologik tasvirning o'tkirligi, matnning serqatlamliligi, falsafiy mushohadaning, psixologik tahlilga moyillikning kuchayishi ko'zga tashlanadi. Zamonaviy o'zbek hikoyanavisligida ham "ong oqimi", kollaj, gallyutsinatsiya, tush, matn osti, ramziylik va majoziylik, assotsiativ fikrlash kabi zamonaviy badiiy tasvir va ifoda vositalari, jahon mifologik syujet va obrazlarga, diniy muqaddas kitoblarda keltirilgan rivoyatlarga yangicha ijodiy yondoshuv jarayoni, tasavvufiy g'oyalarning ifodalanishi kuzatilmoqda. Zero, o'zbek adibi Isajon Sulton ta'kidlaganidek, "Bugunning nasrida uchta quvvatli tamoyil yaqqol ko'zga tashlanib turibdi va, aytish mumkinki, har uchala tamoyilning ham o'z iste'dodlari, o'z ustalari bor. Birinchisi, milliy ruhni, xalq ruhini milliy usullarda yanada rang-baranglashtirib taqdim etish, ikkinchisi – xalq shuurida uzoq yillar yashab kelayotgan o'lmas timsollarni olam ahliga namoyon qilish va uchinchisi – butun dunyo adabiy tafakkurida ro'y berayotgan, ammo bizning adabiyotimiz uchun yangi hisoblangan shakllarni olib kirib, o'z ruhimiz bilan to'ldirishdan iborat" [5]. Zamonaviy arab va o'zbek nasrida ham mana shu uchchala tamoyil ijodkorlar tomonidan iste'foda etilmoqda. Shu jumladan, arab yozuvchilaridan Najib Mahfuz, Yusuf Idris, Diya ash-Sharqaviy, Jamol al-G'itoni, Muhammad Hofiz Rajab, Munir Uteyba, Muhammad Sha'lan, Edvar al-Xarrat, Fuad at-Tekerli, Sunalloh Ibrohim, Baho Tohir, Jo'rij Salim, Zarkariya Tamer, G'ada as-Samman, Valid Ixlosiy, Xanna Mina, Abdurahmon Majid ar-Rubeyi, Mahmud Shuqeyr, Tavfiq Fayad, Yusuf Damra kabi ko'plab adiblar, o'zbek yozuvchilaridan esa Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Salomat Vafo kabi adiblarning ijodini keltirish mumkin.

Adabiy jarayonda yangilanishlar bosqichida adiblar ijodida shunday asarlar yaratilmoqdaki, bir-biriga ham mazmunan, ham ayrim uslubiy jihatdan o'xshash bo'lgan asarlar paydo bo'lmoqda. Bunday o'xshashlik jahon adabiyotida, xususan sharq adabiyotida talaygina bo'lib, shu jumladan, yapon zamonaviy yozuvchilaridan Kobo Abening "Begona Yuz" romanidagi niqob taqib yuradigan odam va misrlik zamonaviy yozuvchilardan Muhammad Sha'lanning "Qandaydir kishi" hikoyasidagi parodiyachi kishi obrazlari orqali o'zligini yo'qotib o'zga qiyofaga kirgan insonning hayoti va o'zlikni topish masalasi, Abo Kobening "Odam-quti" romanida odamlardan uzoqlashib qutiga yashirinib olgan qahramon bilan suriyalik yozuvchi Jo'rij Salimning "Chig'anoq" hikoyasida odamlardan, jamiyatdan qochib, yashirinish maqsadida chig'anoq ichiga kirib olgan yoki o'zbek yozuvchilaridan Ulug'bek Hamdamning "Ko'nglimdagi daryo" hikoyasida hayot mashaqqatlaridan charchagan, jamiyatdan ruhan uzoqlashgan insonning ko'ziga katta daryo bo'lib ko'ringan aslida kichkina bir ariq suviga o'zini tashlashga qilgan harakati, rus shoirlaridan Baris Pasternakning "Vokzal" she'ri, italiyalik yozuvchi Dino Bussatining "Tezyurar poyezd", zamonaviy arab yozuvchilardan Diya ash-Sharqaviyning "Kundalik poyezddagi sayohat", Edvar al-Xarrat "Vokzal -1", "Vokzal-2" va "Vokzal-3", Jo'rij Salimning "Poyezd", o'zbek zamonaviy adibalardan Salomat Vafoning "Poyezd" kabi hikoyalarida "poyezd" obrazining o'tkinchi hayot ramzi sifatida olinishi,

shuningdek, yozuvchi Dino Bussatining “Tatarlar sahrosi” romani va Jo‘rj Salimning “Sahro yo‘lida” hikoyalarida sahroning bo‘shliq, o‘lim, hayotning yakuni ramzi sifatida berilishi kabi g‘oyaviy-uslubiy o‘xshash asarlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bu o‘rinda adabiy jarayondagi o‘zaro adabiy ta‘sir va adabiy aloqalardan tashqari shvetsariyalik psixolog olim, analitik psixologiyaning asoschisi Karl Gustav Yungning ilgari surgan “jamoaviy ongsizlik” (ong qa‘ridagi qatlam), “arxetip” tushunchasini kiritishi o‘z aksini topgandek, go‘yo. Albatta adabiyotshunoslikda mazkur masala mubohasali hisobalanib, bunda san‘atkorlar ijodida o‘zaro ta‘sir va aloqalarsiz voqelikni, borliqni, inson kechmishlarini bir xil tasavvur qilishi, bir xil idrok qilib, bir xil badiiy ifodalashi kabi ijodiy jarayonlarning sirli jihatlari, insonning, ayniqsa, san‘atkorlarning badiiy tafakkuri betinim harakatda ekanligi, badiiy tafakkurining ozig‘i esa bashariyat tarixi va uning boy, ulkan madaniy va adabiy merosi ekanligidandir. Shu jumladan, arab yozuvchisi Jo‘rj Salim¹ning “الفردوس” (“Firdavs”) [7,56-69] va o‘zbek yozuvchisi Isajon Sulton²ning “Bog‘i Eram”³ [2,212-217] hikoyalari ham uslubiy, ham mazmun jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lib, hayotning o‘tkinchiligi, insonning bu dunyodagi umri, hayoti esa omonat, vaqtinchalik ekanligi kabi umumbashariy diniy-falsafiy masalalar yoritilgan. Har ikki adib ham hikoyalarining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos ramz va majozlar bilan yo‘g‘rilgan yangicha uslubdan foydalanadi, hikoya syujetida real, kundalik voqelik tarkibiga g‘ayritabiiy, mo‘jizaviy voqelikni biriktiradi. O‘zbek adabiyotshunosi M.Xolbekov modernizm yo‘nalishi vakillaridan atoqli yozuvchi F.Kafka ijodi haqida: “Ta‘bir joiz bo‘lsa, u irreal dunyoni real tarzda tasvirlagan musavvir hisoblanadi” [5], - deya ta‘kidlaganidek, arab va o‘zbek adiblari ham hikoyalarida irreal dunyoni real voqelik tarkibida ramz, timsol, majozlarlar orqali aks ettirganlar. J.Salimning “Firdavs” hikoyasida yozgi ta‘tilda tog‘ning go‘zal maskaniga dam olishga chiqqan oilaning hayoti tasvirlansa, I.Sultonning “Bog‘i Eram” hikoyasida bir insonning qishloqdagi o‘ynab yurgan bolalik davridan boshlab to keksayib umri tugagunicha bosib o‘tgan yo‘li ifodalanadi. J.Salimning “Firdavs” va Isajon Sultonning “Bog‘i Eram” hikoyalarida ko‘tarilgan mazmun - mohiyat o‘xshash, ya‘ni inson taqdiri, inson umri va nihoyasi bu dunyoning o‘tkinchiligi kabi umumbashariy, falsafiy masalalar bayon etilgan. Har ikki hikoyada ham folklor motivlar hamda muqaddas diniy kitoblarda keltirilgan ma‘lumot va rivoyatlar real voqelikka singdirib yuborilgan. Har ikki hikoyada ham jannatmonand bog‘, go‘zal maskan va manzara ramziy ma‘no kasb etadi. Har ikki hikoyaning nomi ham afsonaviy, go‘zallikka ega maskanlarning nomi bilan, J.Salimning hikoyasi Qur‘onda [6] keltirilgan jannatlarning eng oliysi “Firdavs” nomi bilan atalgan. “Firdavs” hikoyada Yaratgan zotning yer yuzasini jannatga qiyosan yaratganligi haqida ishora, buni hikoya bosh qahramoni va osmondan uchib kelgan sirli yigit o‘rtasidagi dialogda quyidagicha keltiradi:

“Yigit:

- *“Bu joy go‘zal!”...*
- *“Bu joydagi hamma narsa go‘zal!”*

¹ Jo‘rj Salim (1933-1976) – suriyalik yozuvchi, Uning qalamiga “Quvg‘inda” (1962) romani, “Bechora odamlar” (1968), “Ketish” (1970), “Karlar suhbatlari” (1973), “Qadimgi tashnalik hikoyasi” (1976), “Cheksiz kenglikdagi yolg‘iz tovush” (1976) nomli hikoyalartoplamlari mansub.

² Isajon Sulton (1964) – zamonaviy o‘zbek yozuvchisi. U “Munajat” (1990), “Oydinguloq” (1995), “Boqiy darbadar” (2011), “Ozod” (2012), “Bog‘i Eram” (2015) kabi roman, qissa va hikoyalartoplamlari muallifidir.

³ 12 news.uz saytida keltirilishicha, Isajon Sulton bilan bo‘lgan suhbatda: Kitobning “Bog‘i Eram” deb atalishiga sabab nima? degan, savolga yozuvchi, “Eram bog‘i – bir mahallar yer yuzida yaratilgan va keyinchalik samoga ko‘tarilib ketgan jannat bog‘i deyilar. Bu – juda qadimiy rivoyat. Bog‘i eram ko‘zlardan g‘oyib bo‘lib ketgan. Biroq, harkishining qalbida o‘z Bog‘i Erami bor, o‘z jannati bor. Asar ana shu go‘zal ma‘volar haqida”, - deydi.

Kishi eshitar-eshitilmas ovozda dedi:

- *Ha.*

Yigit qo'shimcha qilib dedi:

- *Men uni eng yaxshi bilaman, qurilgan kuni shu yerda edim, u xuddi Firdavsga o'xshaydi" [7,61].*

Isajon Sulton hikoyasining nomi "Bog'i Eram" deb atalib, Hud payg'ambar haqidagi qissada keltirilgan go'zal, hashamatli Eram shahri va unda barpo etilgan go'zal, afsonaviy, jannatmonad bog'larga ishora qiladi. Afsona va rivoyatlarda keltirilishicha, ilohiy kitoblardagi jannat haqidagi ma'lumotlardan ta'sirlangan Nuh payg'ambari avlodlari bo'lmish Od qabilasining shohlaridan biri Shaddod tomonidan jannatga qiyosan go'zal, ajabtovur bog' barpo ettiradi va g'aroyib Eram bog'ining go'zalligi butun dunyoga doston bo'ladi. Shuni aytish lozimki, Eram bog'lari haqida eng ko'p afsona va rivoyatlar bitilib, xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilgan. Eram shahri va uning bemislligi haqida Qur'onning "al-Fajr" surasi 6,7,8-oyatlarida ham keltirilgan. Isajon Sulton hikoyada bosh qahramonning bolalik paytida ko'ziga ko'ringan bog'ni quyidagicha go'zal tasvirlaydi:

"...Uning ortidan qarayman deb ariqdan hatladimu chol ham esimdan chiqib, ko'zlarim baqraygacha qotib qoldim. Nimani ko'rding deng? Qopqalari tilladan, tutqichlari billurdan bo'lgan bir bog'ning qarshisida ko'rdim o'zimni! Qopqa yonida, billur xalqani tutib turgan men qatori bir bolakay menga qarab kular va ichkariga imlar edi... oldinga ikki qadam bosib, boqqa mo'raladim. U yerda nimalarni ko'rganimni aytolmayman, aytganim bilan qanaqadir zaminiy narsalarga o'xshab qolaveradi. U yerdagi daraxtlar, bizning ko'rganimiz odatdagi daraxtlarga o'xshab ketgani bilan, mutlaqo boshqacha edi. U yerdagi qushlar, suvlar... u bog' samoviy edi! G'oyatda go'zal edi! U go'zallikk mos ta'rif topolmay o'rtanaman. " [2,213]

I.Sulton bog'ning go'zal tasvirini berish orqali hikoya qahramonining ko'ziga ko'ringan ajabtovur bog' diniy manbalarda keltirilgan jannatga muqoyasalanadi. J.Salim ham Isajon Sulton ham hikoyalarda tabiat tasviriga, uning go'zalligining ta'riflariga keng o'rin ajratib asarga shoironalik, ko'tarinkilik baxsh etadi, shu bilan birga bu go'zal hayotning, go'zallikning ham o'tkinchiligini ta'kidlaydi. Har ikki hikoya syujetida real va noreal qismlarga bo'linishi bilan bir qatorda, bir nechta ramziy obrazlar ifodalangan. "Firdavs" hikoyasida sirli yigit, soat obrazlari, "Bog'i Eram" hikoyasida esa g'aroyib, sirli bog'dagi bola, ulkan, viqorli daraxt obrazlaridir. J.Salim "Firdavs" hikoyasida bosh qahramon bilan kechgan sirli voqelik, ya'ni faqatgina bosh qahramonning ko'ziga osmondan uchib kelgan g'ayrioddiy yigitning ko'rinishi va unga soat berib ketishidir. Samodan tushgan sirli obraz bilan hikoya qahramoni ikki bor uchrashadi. Nazarimizda, hikoyadagi sirli yigit obrazi farishta, ya'ni diniy manbalarda keltirilgan Azroil farishtasi timsolidir.

"Biroq u ko'rayotgan narsa ro'yo ham emas, tush ham emas edi. Oqga o'ralib olgan kishi tezda uzoq tog'larni bosib o'tdi va bulutlarni orqada qoldirdi, u shoshilmay yurar edi, xuddi suvda sayohat qilayotgandek, lekin u katta masofalarni g'aroyib tarzda tez bosib o'tar, ortida qoldirar edi" [7,60].

J.Salim hikoyadagi mazkur sirli obrazning asar qahramonining oldiga kelishi va soat berib ketishi asar mohiyatini ochishga imkon beradi. Ammo u va uning oilasi hali soat, vaqt nimaligini bilishmas edi. Hikoyada soat ramziy detal hisoblanib, hamma narsaning, shu jumladan, inson umrining vaqti-soati, o'lehoivi borligini anglatadi. Soat uy devorining o'rtasiga ilingach, oila vaqt nimaligini his qila boshlaydilar, ayniqsa, hikoya bosh qahramoni - oila boshlig'i - ota. Hikoyada soatning chiqillashi faqatgina bosh qahramonga kuchli eshitilib yuragini, qalbini parcha-parcha

qilishni boshlaydi, lekin uning oila a'zolari esa soatning chiqillashini umuman eshitmaydilar, hatto soatga bora-bora ahamiyat ham bermay qo'yadilar. Hikoyadagi soatning chiqillashini faqatgina bosh qahramonga eshinishi kabi tasvirlar italiyalik yozuvchi Dino Bussatining "Chiq-chiq tovushi" hikoyasida ham o'z aksini topgan. J.Salimning hikoyasida bosh qahramonga soatning berilishi quyidagicha tasvirlanadi.

“- *Bu nima?*

- *Soat, ko'rmayapsanmi?! Bu uyda soat yo'q.*

Kishi undan so'radi:

- *Lekin, meni bu yerda unga muhtoj deb o'ylaysanmi?*

- *Bu yerda faqat shu narsa kam edi” [7,62].*

Hikoyadagi bu dialog go'yo insoniyatga bu hayotning o'tkinchiligi haqida eslatmadek go'yo. Hikoyada fasllar almashinuvi berilib yoz fasli inson umrining yoshlik davrini, kuz fasli esa insonning qarilik chog'larining assotsiatsiyasidir. Hikoyada sirli yigit ikkinchi marta kuz faslida bosh qahramonning oldiga kelib, vaqt bo'lganligi o'zi bilan birga uni olib ketishi lozimligini ta'kidlab, uni osmondan tushgan o'zi yurar ot aravada jonsiz tanasini olib ketishi tasvirlanadi. J.Salim umri poyoniga yetayotgan inson holatini kuchli emotsional tarzda tasvirlaydi:

“- *Ruxsat ber, ularni oxirgi marta ko'ray, tabiat ovozini eshitay, yana bir martagina yoqimli hidlardan hidlay.*

Bola astagina boshini qimirlatdi, so'ngra keskin ohangda dedi:

- *Yo'q.*

Agar bola izn berganda ham, kishi bunday qila olmasligini his qildi. Uning ko'zlarini qora bulut qopladi, quloqlari tom bitdi, hech qanday tarovatlarni hidlay olmay qoldi. U jim turgan yerida qotib qoldi” [7,66].

Yozuvchi hikoyadagi mazkur epizod orqali hayotda umri tugayotgan insonning ichki kechinmalarini, his-tuyg'ularini, bu hayot qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, baribir yashash istagi o'lmasligini aks ettirgan. J.Salim hikoyada insonning mavjudlikdan yo'qlik tomon yuz tutish jarayonining sirli holatini ramziy obrazlar, g'ayrioddiy syujetlar asosida aks ettirgan. Isajon Sultonning "Bog'i Eram" hikoyasida ham bosh qahramonning gallyutsinatsiyasi orqali, ya'ni hikoya qahramoniga bog'ning bolalikda, yoshlik, o'rta yosh chog'larida va qarilik chog'larida ko'ziga ko'rinishi va jannatmonand bog'ning to'rt davrda to'rt xil ko'rinishi, ya'ni yam-yashil bahor, mevalari g'arq pishgan yoz, daraxtlarning barglari sarg'ayib ketgan kuz va nihoyat uni ichkariga umrbod chorlayotgan bog' orqali ramziylik kasb etgan. Hikoyada bosh qahramonning ko'ziga ko'ringan go'zal bog' - jannatning tasviri, yozuvchi bog'ni go'yo Qur'oni Karim, hadislarda keltirilgan jannat vasfidek tasvirlagan. Go'zal bog'dagi ulkan, mahobatli daraxt esa hadislarda keltirilgan jannatdagi Tubo⁴ daraxtidek muqoyasalandi: "Ko'z o'ngimda gullar g'unchalab, o'sha zahoti ochilayotir, bu gullar aslmi yoki tilladanmi – farqlash qiyin. Darvoza yonida bahaybat bir daraxt yuksalib turibdi, yaproqlari chirt-chir uzilayotir. Ko'nglimda bir sas "To'bi daraxti shu emasmikin", deya shivirlayotir." Go'zal bog'dagi ulkan daraxt – J.Salimning "Firdavs" hikoyasidagi soat obrazidek vaqt, umr ramzi, hayotning

⁴ A'robiiy: "Ey Rasululloh (s.a.v.), uning (ya'ni, jannatdagi Tubo daraxtining) qalinligi qanday? dedi. Aytidilar: "Agar besh yoshli baquvvat tuya uni aylanish uchun yursa, oxiriga yetmay, charchoqdan sillasi quriydi". Shuningdek, "Ibn Vahb Shaxr Ibn Havshadan, u Abu Umoma Bohilydan rivoyat qiladi: Tubo – jannatdagi daraxtdir. Birorta hovli yo'qki, uning shoxi yetgan bo'lmasa, birorta chiroyli qush bo'lmasa, birorta meva yo'qki, uning shoxida pishmasa." Qarang: Imom Qurtubiy. Jannat vasfi ("Tazkiradan"). - T.: Movarounnahr, 2006.

o'tkinchiligi ramzi. I.Sulton hikoyasida inson umri va uning o'tkinchiligini mana shu ulkan, mahobatli daraxtning barglarida aks ettiradi. Hikoya bosh qahramoni bolalikdan to qarilik chog'larigacha bo'lgan davr mobaynida uning ko'ziga ko'ringan bog'dagi mana shu daraxtning uzilayotgan barglarida uning kelajagi bitiladi. Bolalikda ko'rganida daraxtdan uzilib tushgan bargda o'zining ismi (Xolmuhammad Ziy o'g'li) bitilganini, ulg'ayib o'zi farzandlik bo'lgan chog'ida uzilib tushgan daraxt bargida otasining ismi yozilganini, ya'ni otasining vafot etishi, soch-soqoli oqarib qolgan paytlarida bargda do'stining ismini yozilganini ko'rishi va do'stining olamdan o'tishi, keksayib, nuroniy bo'lgan chog'larida esa uzilib tushgan bargda o'z ismining bitilishi va o'sha boqqa kirishi, ya'ni bu dunyodan ko'z yumishi tasvirlanadi. Isajon Sulton J.Salimning "Firdavs" hikoyasidagi kabi o'z hikoyasida magik realizmga xos unsurlardan mo'jizaviy, sirli, ertakona voqelik tasvirida insonning umr yo'lini, insonning bu hayotda oxirgi lahzalarda ham tark etish istagi kelmasligi kabi achchiq haqiqatni aks ettirgandek go'yo:

"- Endi kiraqol yetar.... – dedi.

Ortinga qaradim. Ammo hech narsani ko'rmadim – yosh pardasi ko'zlarimni to'sib qo'rgan edi. Qadam qo'yarkanman, kaftimda bir narsaning taftli haroratini his qildim. Qaradim – boyagina bedazordagi rahmdil bolakay qo'limga tutqazgan, suvga bo'kkan bo'lsa-da, taftini yo'qotmagan bir burda non..." Yozuvchi hikoyada umri poyoniga yetgan insonning holatini tasvirlar ekan, bu dunyoning lazzatini tuyish, uni tark etish hissi naqadar og'irligini "taftini yo'qotmagan bir burda non"ga o'kinch bilan qarashi orqali bayon etgan.

Guvohi bo'lganimizdek, XX asrning 60-70-yillarida ijod qilgan suriyalik yozuvchi Jo'ri Salimning "Firdavs" hikoyasida ko'tarilgan g'oya, mazmun-mohiyat va bunga mos ravishda tanlangan badiiy izlanishlar, usul, poetik mahorati bilan XX asrning 90-yillaridan ijod qilib kelayotgan o'zbek zamonaviy yozuvchisi Isajon Sultonning "Bog'i Eram" hikoyasida ham mazmunan, ham badiiyat nuqtayi nazaridan o'xshashlik mavjud. Har ikki adib asarida syujetning real va noreal qismlarga bo'linishi, gallyutsinatsiya, fantastik, g'ayritabiiy voqelik kabi magik realizm unsurlari, diniy, muqaddas kitoblar va hadislarida keltirilgan rivoyatlarga ishoralar mavjud.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy arab va o'zbek adiblari jahon adabiy jarayonidagi turli zamonaviy yo'nalish va oqimlarning mazmun-mohiyati va badiiy tasvir va ifoda vositalarini o'zlashtirish jarayonida bir vaqtning o'zida milliylikni, milliy koloritni, sharqona qadriyat va boy adabiy merosning an'analarini saqlab qolishga intilish kuchaydi. Zamonaviy arab va o'zbek yozuvchilari yangi uslubdagi hikoyalarda o'rta asr adabiyotining ham shaklan, ham mazmunan an'analarini yangilangan, boyigan, murakkablashgan ko'rinishda istifoda etib davom ettirishga harakat qilib kelmoqdalar. Nobel mukofoti sovrindori, mashhur misrlik yozuvchi Najib Mahfuz zamonaviy arab adabiyotida adabiy merosning o'rni haqida shunday baho beradi: "Meros barcha madaniy ko'tarilishning asosiy unsuri hisoblanadi. Bu yo'ldagi maqsadimiz madaniy merosimizga zamonaviy makondan qarab javob topishdir. Milliy merosimizning qadr - qimmatini eng ko'pki, undan foydalanamiz, u orqali farzandlarimizni tarbiyalaymiz" [8, 246]. Atoqli adib N.Mahfuz ta'kidlaganidek, zamonaviy arab va o'zbek adabiyotida uslubiy yangilanishlar jarayonida milliy adabiy, madaniy merosning ahamiyati salmoqli o'rinni egallamoqda.

Zamonaviy arab va o'zbek hikoyanavisligida mazmunan yangilanish tamoyillari yozuvchilarning zamonaviy mavzularni yoritib berishda muqaddas diniy kitoblarda, rivoyatlarda keltirilgan payg'ambarlar haqidagi qissalar, jahon adabiyotidagi yoki milliy adabiyotdagi mifologik obrazlarga bilvosita yoki bevosita murojaat etishlarida kuzatilmoqda. Shaklan

yangilanish tamoyillari esa zamonaviy hayotiy muammolarni tasvirlash jarayonida asar masal, an'anaviy qissa shaklidagi hikoya, tarixiy xronika, sayohat, maqoma kabi o'rta asr adabiy janrlaridan istifoda etishda ko'zga tashlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дўстмуҳаммад Х. Миллий ҳикоя: изланишлар, ютуқлар, истаклар./ Озод ватан саодати .Адабий танқид/ Т.:Адиб. 2013, Б.234.
2. Султон. И. Боғи эрам. Ҳикоялар. – Т.: Шарқ. 2015.
3. Мухиддинова Д.З. Бадиий тафаккур тақомили. – Т.: Ғ.Ғулом. 2015.
4. Мухиддинова Д.З. XX аср араб ҳикоянавислиги. – Т.: Ғ.Ғулом. 2017.
5. kh-davron.uz Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари.
6. Қуръон: Қаҳф сураси, 107-оят; Муъминун сураси 11-оятлар.
7. جورج سالم. حكاية الظمأ القديم. قصص. دمشق. منشورات اتحاد الكتاب العرب. 1976.
8. الفجر. "لا أتصور نهضة في العلم أو في الألب دون حرية". القطرية. العدد 3، 1985/2/8. ص.246.